QASHQADARYO VILOYATI QAMASHI TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 26-sentabr | 362-4-58-Q/24 | Qamashi tuman hokimligi

Qamashi tuman hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo'llari va markaziy ko'chlarida fuqarolar va transport vositalarini harakat xavfsizligini ta'minlash, yo'l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo'l belgilari o'rnatish to'g'risida

O'zbekistan Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-, 25- moddalariga, "Normativ-hududiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunning 4-,16-moddalariga, O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 10-apreldagi "Yo'l harakati vavfsizligi to'g'risida"gi 348-sonli Qonunining 6-moddasiga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-sonli qaroriga asosan tuman hududida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash hamda shahar markazida tirbandlikni oldini olish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo'lgan keng ko'lamli tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar rejasi ijrosini ta'minlash maqsadida, tuman Yo'llardan foydalanish davlat muassasasining 2024-yil 16-iyuldagi 118-sonli, 8-avgustdagi 136-sonli aloqa xatlarini hamda Qashqadaryo viloyati IIB YHXBning 2024- yil 5-iyuldagi YHXB 24/6-3032-sonli taqdimnomasini ko'rib chiqib,

QAROR QILAMAN:

1. Qamashi tuman Yo'llardan foydalanish davlat muassasasining 2024-yil 16-iyuldagi 118-sonli, 8-avgustdagi 136-sonli aloqa xatlari hamda Qashqadaryo viloyati IIB YHXBning 2024-yil 5-iyuldagi YHXB 24/6-3032-sonli taqdimnomasi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qamashi tuman hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo'llari va markaziy ko'chalarida masjidlar oldida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta'minlash, yo'l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o'rnatilishi lozim bo'lgan yo'l belgilari va manzili 1-ilovaga

asosan tasdiqlansin hamda mazkur yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

3. Qamashi tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i N.Raximov, tuman ichki ishlar bo‘limi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i X.Xayrullayev va tuman yo‘llardan foydalanish davlat muassasasi direktori Sh.Almardonov, tuman hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida joylashgan masjidlar oldida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta‘minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilarini o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman hokimligining axborot xizmati (N.Rasulov) ushbu qarorni tuman hokimligining rasmiy veb saytida hamda boshqa OAVlarda keng yoritish tavsiya etilsin.

5. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorni ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Q.Haydarov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **X.Usmonov**

Qamashi tuman hokimining
2024-yil 26-sentabrdagi
362-4-58-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chlarida joylashgan Masjidlar oldida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta‘minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzili

RO‘YXATI

№	Yo‘l belgisi o‘rnatilgan manzil nomi	Yo‘l belgisini nomi	Yo‘l belgisini soni
1.	4K 340 “Qamashi-Chimqurg‘on” avtomobil yo‘lining 2 kmda yo‘lning o‘ng va chap tomonida	3.27 “To‘xtash taqiqlanadi”	2 dona
2	4K 340 “Qamashi-Chimqurg‘on” avtomobil yo‘lining 2 kmda yo‘lning o‘ng va chap tomonida	7.2.3 “Ta‘sir oralig‘i”	2 dona
3	4K 340 “Qamashi-Chimqurg‘on” avtomobil yo‘lining 2 kmda yo‘lning o‘ng va chap tomonida	7.2.4“Ta‘sir oralig‘i”	2 dona
4	4K 340 “Qamashi-Chimqurg‘on” avtomobil yo‘lining 2 kmda yo‘lning o‘ng va chap tomonida	7.5.5 “Amal qilish vaqti”	2 dona
5	4K 340 “Qamashi-Chimqurg‘on” avtomobil yo‘lining 2 kmda yo‘lning o‘ng va chap tomonida	7.5.7 “Amal qilish vaqti”	2 dona
6	4K 340 “Qamashi-Chimqurg‘on” avtomobil yo‘lining 2 kmda yo‘lning o‘ng va chap tomonida	6.19 “Masjid”	2 dona
7	4P79 “Qarshi sh.-Chim q.-Chiroqchi q-Shahrisabz sh” avtomobil yo‘lining 41-kilometrida	3.27 “To‘xtash taqiqlanadi”	2 dona
8	4P79 “Qarshi sh.-Chim q.-Chiroqchi q-Shahrisabz sh” avtomobil yo‘lining 41-kilometrida	7.2.3 “Ta‘sir oralig‘i”	2 dona
9	4P79 “Qarshi sh.-Chim q.-Chiroqchi q-Shahrisabz sh” avtomobil yo‘lining 41-	7.2.4“Ta‘sir oralig‘i”	2 dona

	kilometrida		
10	4P79 “Qarshi sh.-Chim q.-Chiroqchi q-Shahrisabz sh” avtomobil yo‘lining 41-kilometrida	7.5.5 “Amal qilish vaqti”	2 dona
11	4P79 “Qarshi sh.-Chim q.-Chiroqchi q-Shahrisabz sh” avtomobil yo‘lining 41-kilometrida	7.5.7 “Amal qilish vaqti”	2 dona
12	4P79 “Qarshi sh.-Chim q.-Chiroqchi q-Shahrisabz sh” avtomobil yo‘lining 41-kilometrida	6.19 “Masjid”	2 dona
13	4H296 “G‘ishtli qishlog‘iga kirish” avtomobil yo‘lining 1-kilometrida	3.24 “Yuqori tezlik cheklangan” (30 km/soat)	2 dona
14	4H296 “G‘ishtli qishlog‘iga kirish” avtomobil yo‘lining 1-kilometrida	3.4 “Yuk avtomobillarining harakatlanishi ta’qiqlangan”	2 dona
15	4K295 “Uchtut-To‘qboy-Yangi qurilish” avtomobil yo‘lining 2-13 kilometrida	3.4 “Yuk avtomobillarining harakatlanishi ta’qiqlangan”	2 dona
16	4K298 “Sho‘rcha-Qamashi-Xontushdi” avtomobil yo‘lining 8-9 kilometrida	3.24 “Yuqori tezlik cheklangan” (30 km/soat)	2 dona